



INFORMATION ABOUT POPULATION TRANSFER AND MIGRATION PROCESSES IN WRITTEN SOURCES

Akmal Ismoilov

Senior lecturer

Tashkent International University of Kimyo

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: migration, Huns, Northern Europe, aridization, ancient writings, Avesta, great migrations of peoples, assimilation, consolidation.

Received: 04.03.25

Accepted: 06.03.25

Published: 08.03.25

Abstract: This article provides comprehensive information about migration processes that occurred in ancient and early medieval times. Historical written sources offer detailed accounts of population movements and related data. These written sources also present insights into the social lifestyle, economy, and other economic, political, and natural phenomena that led to migrations of Central Asian peoples during the most ancient and early medieval periods, as well as the consequences of these movements.

YOZMA MANBALARDA AHOLINING KO'CHISHI VA MIGRATSION JARAYONLAR BILAN BOG'LIQ MA'LUMOTLAR

Akmal Ismoilov

o'qituvchi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, hunlar, Shimoliy Yevropa, aridizatsiya, qadimgi bitiklar, Avesto, xalqlarning buyuk ko'chishlari, assimilyatsiya, konsolidatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadim va ilk o'rta asrlarda yuz bergan migratsion jarayonlar haqida atroflicha ma'lumot berib o'tiladi. Tarixiy yozma manbalarda aholining ko'chishi u bilan bog'liq ma'lumotlar atroflicha keltiriladi. Yozma manbalarda Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi va ilk o'rta asrlar davridagi ijtimoiy turmush tarzi, xo'jaligi va boshqa iqtisodiy-siyosiy, tabiiy hodisalar sabab ko'chishlarining oqibatlari haqida ham fikrlar keltirib o'tiladi.

**СВЕДЕНИЯ О ПЕРЕСЕЛЕНИИ НАСЕЛЕНИЯ И МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССАХ
В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ***Акмал Исмоилов**Старший преподаватель**Ташкентского международного университет Кимё**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: миграция, гунны, Северная Европа, аридизация, древние надписи, Авеста, великие переселения народов, ассимиляция, консолидация.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о миграционных процессах, происходивших в древности и раннем средневековье. Исторические письменные источники содержат обширные сведения о перемещениях населения и связанных с ними данных. В письменных источниках также приводятся сведения о социальном укладе жизни, хозяйстве и других экономико-политических и природных явлениях, ставших причиной миграций народов Центральной Азии в древнейшие времена и раннее средневековье, а также о последствиях этих переселений.

Ma'lumki, yozma manbalar insoniyatning o'tmishini, biror qabila, elat va xalq yoki davlat tarixini o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dastlabki yozma manbalar qatoriga Misr ierogliflari, Bobil mixxatlari, Xitoy ierogliflari, hind, oromiy yozuvli matnlar: parfiyoniy, sug'diy, xorazmiy va boxtariy yozma yodrorliklari insoniyatning qadimgi bitiklari sifatida e'tirof etiladi. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy ajdodlari va ularning turar-joylari, urf-odat va marosimlari, yashash turmush tarzi hamda xo'jaligi to'g'risida noyob ma'lumotlarni bizgacha yetib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham ko'rish mumkin. Avestoning kitobatlarida Turon qabilalarining turmush-tarzi haqida ma'lumotlar uchraydi. Mil. avv. VI asrlardan to Arab xalifaligi istilosigacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlariga tegishli ma'lumotlarni qadimgi Eron podsholigiga oid qoyatosh bitiklarida ham uchratish mumkin.

N.Obnorskiyning fikricha, Qadimgi Sharqning ilk saltanati **Eron ahamoniylari** davlati hukmdori Kurush (Kir II) mil. avv. 538-yilda egallagan Elamning sobiq poytaxti Suzadagi mixxat bitiklarida ham Markaziy Osiyo qabilalariga oid ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, Doroyavush (Doro I) farmoni bilan o'z istilolari va qo'lga kiritgan o'ljalarini ulug'lash maqsadida toshga bitilgan zafarnomalar – *Persepol bitiklari*, *Bihistun* va *Naqshi Rostam* qoyatosh bitiklarida bosib olingan elatlar va xalqlar tilga olinib, markaziyosiyoliklar (*saklar*, *derbekr*, *baqtriylar*, *xorasmiylar*)ning nomlari keltirilgan. Shuningdek, uning Hamadon yaqinida

topilgan kumush pilikchadagi (oltin pilikcha bilan birga) yozuvda Turonning katta qismi Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgani qayd etilgan. Bu ma'lumotlarda siyosiy jarayonlar va harbiy harakatlar natijasida Markaziy Osiyodagi qabilalarning O'rta Sharq va Yaqin Sharq hududlariga olib ketilishi o'z aksini topgan. Ayniqsa, bu holat qoyatoshlardagi tasvirlarda yaqqol namayon bo'lgan. Turli davrlarga oid aholi manzilgohlarining geografiyasini o'rganish orqali ma'lum bir hududlarning o'zlashtirilishi jarayoni, urug'-jamoalari va qabilalarning geografik joylashishiga xos jihatlar, iqlimiy o'zgarishlar sabab ko'chishlar, aholining xo'jalik madaniy tiplarini o'troq va ko'chmanchi turmush tarziga o'tishini aniqlash migratsion jarayonlarning mohiyatini ko'rsatishda dolzarb hisoblanadi.

Qadimgi yunon va Rim tarixchi hamda geograflarining asarlarida Markaziy Osiyo xalqlari haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Xitoy manbalari orasida yilnomalar, sayohatnomalar, esdaliklar muhim o'rin tutadi. Xitoyning g'arbdagi o'lkalarga yuborgan xufiyalari, ziyoratchilari **Chjan Szyan, Syuan Szyan, Ren Chang** va **Xoy Chao** kabilarning sayohatnomalarida Markaziy Osiyo tarixining qadimgi va ilk o'rta asrlari davriga oid ma'lumotlar, hudud aholisining siljishiga sabab bo'lgan omillar keltirilgan. Ushbu yozma yodgorliklarda o'lkaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'muriy boshqaruv tizimi, bu yerda yashovchi xalqlarning turmush tarzi va xo'jalik faoliyati, xalqaro savdo-elchilik aloqalari qatorida qabilalarning migratsiyasi bilan bog'liq jarayonlarni yoritib beruvchi ma'lumotlar ham uchraydi. Shuni alohida eslab o'tish kerakki, Xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqti va o'rni, u yoki bu hududda istiqomat qilgan xalqlar, shuningdek, bir-biriga qarshi turgan qo'shinlarning umumiy soni aniq ko'rsatilgan. Qolaversa, Xitoy solnomalari ichida Turk xoqonligi tarkibiga kirgan Xorazm, Sug'd, Shosh, Farg'ona, Toxariston kabi mahalliy hokimliklarning xoqonlik davridagi tarixi, aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha muhim ma'lumotlar berilgan. Xitoy tarixchilari o'z faktlarini aniq va ravon berishlari bilan ham ajralib turishadi. Xitoy manbalarining mualliflari ichida: saroy tarixchilaridan Vey Shou (506-572) yozgan "Vey shu" ("Vey sulolasi tarixi"), Tan davlatining dastlabki yillarida (629-656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuy Jinzung kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi") – Suy davlati (581-618) tarixiga bag'ishlangan solnomalar, Tan sulolasining dastlabki davrida, ya'ni VII asrning birinchi yarmida yozilgan "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi", 630-yil.), 941-945-yillarda Tan sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhi yozgan "Tan shu" ("Tan sulolasi tarixi", X asr) kabi manbalarda Markaziy Osiyodagi migratsion jarayonlar o'z aksini topgan.

Xususan, "Bey-shi" ("Shimoliy sulolar tarixi", 630-yillar), "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi", 630-yil) va "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi", X asr) solnomalarida Choch (Toshkent),

Farg‘ona, Ustrushona, Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi), Xorazm va Toxariston haqida, bu yerlarda yashovchi xalqlarning migratsion jarayonlar bilan bog‘liq tarixi, xalqlarining turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, mintaqaviy va xalqaro savdo-elchilik aloqalaridagi o‘rniga oid ma‘lumotlar o‘rin olgan.


Sima Szyan (taxminan, mil.avv. 145- yoki 135-86-yillar)ning mashhur asari “Shi Tszi” (“Tarixiy yilnomalar”) da 3 ming yillik tarix bayon etilgan. Shuning uchun ham “Shi Tszi” qadimgi Xitoyda ilk bor yangi uslubda bitilgan umumiy tarix hisoblanadi. U 130 bobdan iborat. Mazkur boblarda qadim zamonda o‘tgan hokimlar, amaldorlar va ularning shajaralari, ilm – fan, urf-odat, san‘at va qonun – qoidalar, yirik shaxslar shajaralari va ularning faoliyatlari, qadim Xitoy atrofida yashagan xalqlar hamda ular tomonidan tashkil etilgan davlatlar va hokimliklarga bag‘ishlangan ma‘lumotlar uchraydi.

Agar Sima Syanning tarixiga nazar solsak, u saroy tarixchisining oilasida tug‘ilganini hisobga olib, imperator U-di zamonida u bir necha yil saroy soqchisi (langchjung) lavozimida ishlaganiga keyinchalik Bashu, deb nomlangan qo‘shni davlatga elchi qilib yuborilganligiga guvoh bo‘lamiz. Mil.avv. 108-yilda ilgari otasi egallagan saroy bitikchilari (imperator uchun hujjatlar tayyorlovchilar) boshlig‘i lavozimiga tayinlangan. Mil.avv esa 100-97-yillarda Li Lin (vaf.74) ismli lashkarboshi 5 ming suvoriyga bosh bo‘lib, ko‘chmanchi hunlarga hujum qilganida, asirga tushib qolganida hunlar uni qatl etmasdan bek lavozimiga tayinlaganlar.

“Shiji”da Sima Syan Li Lin haqida ham Xan xonadoni uchun ko‘rsatgan xizmatlarini bayon qilgan. Bundan ranjigan U-di Sima Syanga qamoq jazosini buyurgan. Qattiq hafa bo‘lgan Sima Syan tarix yozishga kirishgan. Qamoqdan ozod etilgach, mil. avv. 96-yilda imperatorning safarlari arafasida o‘tkaziladigan marosimlar boshqaruvchisi lavozimiga (chjungshuling) tayinlangan. Aynan ushbu lavozimdalgida yaxshigina foydalanib qolib, ko‘pgina o‘lkalarda bo‘lgan va ko‘rgan-bilganlarini yozib boravergan.

“Shiji”dagi Farg‘onaga oid ma‘lumotlar imperator U-dining Markaziy Osiyoga yuborgan elchi Chjan Szyan ma‘lumotlari asosida yozilgan. Mil.avv. II asr oxirlarida Xitoy imperatorining asosiy maqsadi qo‘shni hududlar haqida ma‘lumotlar to‘plash bo‘lgan. Biroq Hun xoqonligi va Xitoy o‘rtasidagi dushmanlik U-dining maqsadlariga to‘sqinlik qilgan. Shu bois, U-di masalaga boshqacha yondoshgan. U G‘arbdagi yurtlardan hunlarga qarshi kurashish uchun ittifoqchi izlagan va o‘z elchilarini G‘arbga yuborgan. Bu kabi iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq ma‘lumotlar bir qator tarixiy darsliklarda ham o‘z aksini topgan.

Quyidagi jadvalda ilk yozma manbalar sirasiga kiritilgan Yunon va Rim mualliflarining asarlari keltirib o‘tiladi.



Markaziy Osiyodagi migratsion jarayonlarni pahlaviy, arman, arab va fors tilidagi manbalar hamda qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda ham uchratish mumkin.

Tabariy, Gardiziy, Narshaxiy, Koshg'ariy kabi muarrixlarning ishlarida ham migratsion jarayonlarga oid ma'lumotlar uchraydi.

Tarixan Markaziy Osiyo mintaqasida yuz bergan migratsion jarayonlarning muhimligi borasida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to shu kunga qadar deyarli bir yarim asr vaqt mobaynida g'arb va sharq olimlari qo'shimcha ravishda Markaziy Osiyoning tashqi aloqalari tarixiga ham qiziqish bildirib kelmoqda. Qolaversa, mintaqaning geografik o'rni, iqlimi va aholisining turmush tarzi bu o'lka haqida uzoq va yaqin yurtlardan kelgan sayyohlar, savdogarlar, diplomatlar kabi turli soha vakillarining o'z davlatlari manfaatlaridan kelib chiqib, turi mazmundagi ma'lumotlar yozib qoldirish uchun sabab bo'lgan. Mazkur hudud strategik jihatdan muhim nuqtada joylashganligi uchun, noyob va qimmatbaho madanlarga ega tabiiy boyliklari bo'lgani uchun va mo'tadil iqlimli o'lka bo'lgani uchun ham atrofdagi katta-kichik davlatlar e'tiborini tortgan. Qadim xitoyliklarning bir qator yozib qoldirgan ma'lumotlariga qarasa, ular atrofidagi xalqlarga oid ma'lumotlarni dastlab sopol idishlariga, hayvon suyaklari, toshbaqa kosalari, bambuk taxtachalari hamda boshqa buyumlarga yozishganlariga guvoh bo'lamiz. Lekin shuni alohida aytib o'tish kerak, ularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan. Tarix faniga ma'lum qadimgi Xitoyning shimoli-g'arbida yashaydigan ayrim etnik xalqlarning tarixini, xo'jalik hayotini yoritgan voqeliklar tafsiloti mil.avv. II-I asrlar yozma manbalaridagi ma'lumotlarda uchraydi.

Xitoy manbalarida Markaziy Osiyodagi etnonim, toponim va boshqalarni ieroglifda yozishda uning shakl tuzilishiga qarab qisqaroq nom berilgan. Vaqt o'tib mahalliy nomlarning talaffuziga qarab to'liq nom berish milodiy IV-V asrlardagi manbalarda uchraydi. Bizgacha saqlangan qadimgi davrga oid Xitoy yozma manbalarida xitoyliklar o'zlari yashab turgan

hududdan g'arbda joylashgan mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyoga nisbatan ishlatgan bir nechta tarixiy geografik atamalar saqlanib qolganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan, "Shirung" (G'arb tomondagi ot minuvchi odamlar), (ruscha-Sijun), deb qayd etilib, aynan uning negizida paydo bo'lgan, deyiladi. Qo'shimcha "Shirung" termini haqida "Veysu" (Vey [sulolasi] tarixi)ning 102-bob "G'arbiy mamlakatlar" tazkirasidagi jumlaning boshlanish qismida shunday keltiriladi: "Shya [sulolasi] tarixida Shiyuy [atamasi] Shirung (g'arbdagi ot minuvchilar), deb nomlangan. Xuddi shu ma'lumot "Beyshi" (Shimoliy [sulolalar] tarixi)ning 97-bob "G'arbiy mamlakatlar" tazkirasida ham keltiriladi. Qozog'istonlik sharqshunos olimi K.Xafizova Xitoy manbalariga asoslanib yozishicha, "Siyuy qadimda Sijun, deb atalgan. Bulardan tashqari, "Shitu" (g'arbiy zaminlar, tuproqlar) atamasi ham ishlatilgan. Demak, "Shirung" va "Shitu" qadimgi xitoyliklar tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan qo'llanilgan atamalarning eng qadimysi, deyish mumkin.

Umuman olganda, bu kabi fikr-mulohalarni ko'pgina dunyo olimlari turlicha talqin etgan. Jumladan, qozog'istonlik olim Y.A.Zuevning fikricha, xitoy manbalarida mil.avv. I asrning o'rtalarida Sibir va O'rta Osiyo "G'arbiy o'lkalar", deb nomlangan. Qo'shimcha yana bir olim yaponiyalik Xaneda Toru qadimda Shiyu" deb Yaponiyaga nisbatan ishlatilgan, degan fikrni ilgari suradi.

Migratsion jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi yunon va Rim, Xitoy va qadimgi fors manbalari hamda arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, bronza davridan boshlab (**mil.avv. 3-mingyillik o'rtalaridan**) Yettisuv, Buyuk Dasht, Janubiy Sibir, Yenisey havzalari, Ural tog' tizmalarining janubiy-sharqiy yonbag'rlari, Janubiy-g'arbiy Tangritog', Tog'li Oltoy va Boyko'l qirg'oqlaridan turli etnik guruhlar birin-ketin Turon hududiga kirib kela boshladi. Ular tub aholi bilan o'zaro munosabatlarga kirishib, assimilyatsion jarayonlarni boshdan kechirdi. Bu kabi migratsion jarayonlarda asosiy harakatlanish vositasi sifatida tuya, ot, eshak, hachir, ho'kiz, it kabi hayvonlardan foydalanilgan. Dastlabki migratsion harakatlar uchun xizmat qilgan yo'llar keyinchalik mintaqalararo savdo yo'llariga asos solgan. So'nggi bronza va ilk temir davri urug' jamoalari va qabilalarining kundalik hayotida yetakchilarning ro'liga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shu ma'noda katta tajribaga ega bo'lgan salohiyatli shaxslar "demokratik prinsplar" asosida qabila sardorlari yoki oqsoqollari (kadxudotlar, vispatlar, zantupadlar, daxyupatlar) etib saylangan. Ya'ni jamiyatning dastlabki ierarxiyasi shakllangan. Bronza davri chorvadorlariga tegishli janubiy-sharqiy Ural tog'-yonbag'rlari va shimoliy Qozog'iston cho'llarida o'rganilgan Andronova madaniyatining Sintashta mozor qo'rg'onlarida topilgan ashyolar bu jamiyatning badavlat chorvador aslzodalari, harbiylari va kambag'al xizmatkor toifalari bo'lganligini

dalillaydi. Chunki qabr-qo'rg'onlaridan topilgan harbiy aslzodalarga tegishli ot va yengil harbiy aravalarning topilmalari mulkiy tabaqalnish haqida ma'lumot beradi.

Migratsiyalar natijasida bir qavm o'ziga begona bo'lgan qabilalar bilan qo'shni bo'lib, uzoq yillar bu elatlar o'zaro yaqin munosabatlarda simbioz (uyg'un) holatda bir hududda joylashib yashaganlar. Buni antik va ilk o'rta asrlar davridagi turk-sug'd, keyingi davrlardagi o'zbek-tojik, ozarbayjon-fors, turk-kurd, turk-arab kabi jarayonlarda kuzatish mumkin. Turli sabablarga ko'ra, uzoq tarixiy davrda shakllanib kelgan etnoslar o'z yerlarini tashlab juda uzoq yurtlarga xususan, hunlar yoki mojarlar kabi G'arbga ko'chib ketishgach yillar davomida qo'shni xalqlar ta'sirida ijtimoiy va lingvistik turmushida o'zgarishlar ro'y bergan.

Migratsiyalar ta'sirida Oltoy hududlaridan ko'chgan qabilalar va elatlarning ayrim qismlari yoki guruhlar butun Yevroosiyo va Amerika qit'alari bo'ylab tarqalib, boshqa xalq va elatlar orasida yashashga majbur bo'lganlar. Ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot davomida ayrim xalqlar, hatto bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib, turmush tarzlarini o'zgartirib yangi muhitga moslashganlar. Masalan, turklarning Shimolga ko'chgan qabilalari (yoqutlar, to'falar) o'sha hudud bilan bog'liq bo'lgan bug'uchilik bilan shug'ullanganlar.

Ilk o'rta asrlarning so'ngi bosqichida Arabiston yarim orolini islom dinini tarqatish maqsadida harbiy harakatlarni amalga oshirib, islom madaniy muhitida mahalliy elatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ham jahonda bir tilda gaplashadigan, ammo o'zlarini har xil nomlaydigan xalqlar ko'p uchraydi. Masalan, ingliz, arab, turk, eroniy tillarda gapiradigan, ammo turli nomdagi xalq va elatlar shular jumlasiga kiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, insoniyatning uzoq o'tmish tarixida qadim va ilk o'rta asrlardagi migratsion jarayonlarning ahamiyati juda yuqori. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududlariga qabilalarning ko'chishlari va hatto uzoq g'arbga (Shimoliy Yevropa) qadar siljigan hunlarning hetib borishlari, Yevropa tarixshunosligida "Xalqlarning buyuk ko'chishlari", deb nom olgan milodning IV-VI asrlari tarixi xalqlar tarixida migratsion jarayonlar bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ataxodjayev A, Zamonov A, Xalmuminov U, Maxammadiyev A, Ismoilov A, Abdusodiqov S. O'zbekiston tarixi. I qism (Eng qadimgi davrlardan – IX asrgacha). Darslik. Toshkent, "Bayoz" nashriyoti, 2024.

2. Xo'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar (qadimiy va ilk o'rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). –Toshkent, 2013.

3. Shya sulolasi mil.avv. XXI-XVI asrlarda hukmronlik qilgan Xitoydagi ilk davlatchilik ibtidosi hisoblanadi.

4. Xitoycha aslyatdan A.Xo‘jayev tarjimasi, (qarang: Xo‘jayev A., Aytbayev A., Qo‘ldashev Sh., Djumaniyozova F. Markaziy Osiyo tarixi Xitoy manbalarida. – Toshkent, 2016. 51-52-betlar) Mazkur xitoychadagi ma’lumotlar asl manba Veyshu (Vey [sulolasi] tarixi) // Ershisi shi (24 tarix). 10-jild. –Pekin,1974. 2259 betlik.

5. Beyshi (Shimoliy [sulolalar] tarixi) // Ershisi shi (24 tarix). 15-jild. –Pekin, 1974. 3205 betlik. Ushbu ma’lumot N.Y.Bichurin asarining “Beyshi” tarjimasida tushib qolgan, (qarang:Bichurin N.Y. (Iakinf). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. 2 том. – Москва-Ленинград, 1950.

6. Хафизова К.Ш. Китайская дипломатия в Центральной Азии (XIV-XIX вв.). – Алматы, 1995. –С. 41.

7. Azimov X. Qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari (xitoy manaballari asosida). – Toshkent: Fan ziyosi, 2024.

8. Зуев Й.А. К вопросу о взаимоотношениях усуней и канцзюй с гуннами и Китае (во второй половине 1 века до нашей эры) / Известия Академии наук Казахской ССР, выпуск 2(5). – Алматы, 1957.

9. Xaneda T. Shiyuy venmingshi gaylun. (G‘arbiy yurtlar sivilizatsiyasi tarixi haqidagi umumiy ta’rif).– Shangxay, 1935.

10. Asqarov A. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan,2023.

11. Mavlonov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari. Toshkent: Akademiya,2008.

12. Asqarov A. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan,2023.

13. Otaxo‘jayev A. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari. “ART-FLEX”, Toshkent, 2010.